

LINGVOPOETIKA VA UNING BADIY MATNLAR TAXLILIDAGI ASOSIY VAZIFASI

Ismoilova Dilorom Rustamjonova

Farg'ona davlat universiteti ingliz tili kafedrasi o'qituvchisi

Musinova Zuhra Ma'rifjon qizi

Farg'ona davlat universiteti lingvistik (ingliz tili)

yo'nalish magistranti zhraxonmosinova0@gmail.com

Maraimova Madinabonu Mo'sin qizi

Farg'ona davlat universiteti lingvistik (ingliz tili)

yo'nalish magistranti madinabonumaraimova05@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada aosan badiiy asar tili va unda qo'llanilgan lingvopoetik vositalarning tutgan o'rni hamda manashu soha rivoji uchun xissa qo'shgan olimlar nomlari sanab o'tilgan. Shu bilan bir qatorda matinni lingvopoetik taxlili jarayonida alohida e'tibor qaratishni ta'lab etadigan bir qancha asosiy unsurlar ham keltirilgan.

Kalit so'zlar: Lingvopoetik taxlil, matn va uning tiplari, badiiy ma'no, lisoniy-estetik butunlik, ijodiy tafakkur, badiylik hodisasini.

KIRISH

Maskur maqolada bugungi o'zbek va jahon tilshunosligida lingvopoetikaning nazariy masalalari tushunchasining mohiyati xususida so'z boradi. O'zbek va jahon tilshunosligida lingvopoetikaga berilgan baho va uning zaruriy ahamiyatiga ham alohida e'tibor qaratilgan.

NATIJARLAR VA MUHOKAMA

Badiiy asar tiliga kategorial yondashuvning shakllanishi, badiiy so'zni ijodning shakl va mazmun xossalari birligida o'rganishga harakat badiiy asarni estetik va falsafiy nuqtai nazardan tushunish uchun asos bo'ldi. Jumladan, G.E.Lessing, F.Shiller, Gumboldt, A.A.Potebnya, V.V.Vinogradov, V.M.Jirmunskiy, V.Ya.Zadornova, O.S.Axmanova, G.O.Vinokur, L.V.Shcherba ishlari o'rganildi, muhim ilmiy xulosalaridan foydalanildi. A.Xolodovichning «Adabiy til uslubshunosligi», «Poetikada lisoniy usul» asarlarida, nemis olimi E.Koseriuning poetik tilning yangi izohi kabi tushunchalarida, fransuz tilshunoslari D.Delas va J.Fiyollarning lingvistik va poetika bo'yicha yangi qo'llanmalarida, Ye.B.Artemenkoning lingvofolkloristika bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida lingvopoetikaning filologiya ilmida alohida fan sifatida o'rganilishi yuzasidan qarashlar bayon qilingan. Zamonaviy rus tilshunosligida lingvopoetikaning nazariy masalalari tadqiqi bilan shug'ullangan olimlardan biri A.Lipgartdir.

Har qanday matn lingvopoetik taxlil qilinganda avvalinbor eng asosiy e'tibor mana shu matn va uning tiplari, badiiy matn va uning qismlarini bog'lovchi vositalar, badiiy nutq uslubi va uning ko'rinishlari, badiiy [matnning fonetik-fonologik](#), leksik-grammatik xususiyatlari, ko'chimlar hamda badiiy matnni tadqiq etish tamoyillari bilan tanishtirish hamda mazkur kurs bo'yicha olgan nazariy bilimlarini badiiy asarlardan tanlangan matnlar tahlilida sinab ko'rishga qartilgan bo'ladi.

Shuning bilan bir qatorda matnning lingvopoetik tahlili deganda biz asosan matndagi badiiy ma'no va badiiy mazmuni aniqlash asosida lingvopoetik butunlik sifatidagi matnni baholashni tushnamiz. Badiiy matnning lisoniy tahlili maxsus tamoyillar asosida amalga oshirilishi lozim. Badiiy matndagi [poetik aktuallashuv fonografik](#), leksik, morfologik va sintaktik vositalarning har birida o'ziga xos tarzda kechadi. Badiiy matnning lisoniy–estetik butunlik sifatidagi tabiati ham shakliy, ham semantik mohiyatga ega bo'lgan integrativ munosabatlarning mavjudligiga ko'ra yuzaga keladi.

Matn qanday ma'no anglatishiga ko'ra juda ko'p turlarga bo'linadi: maksimal matn, minimal matn, og'zaki, yozma, erkin strukturali, turg'un strukturali, [hikoya matni](#), tasviriy matn, muhokama matni, badiiy matn, nobadiiy matn va hokazo. Bugungi kunda tilshunoslikda "Matnning lingvopoetik tahlili" fanining tutgan o'rni beqiyosdir. Chunki matnni tahlil qilishda, uni tushunishda bu fan katta ahamiyatga ega.

Matinlarning lingvopoetik taxlili nafaqat adabiyotshunoslik balki matnshunoslik, nutq madaniyati, uslubshunoslik, falsafa, etika, [estetika](#), mantiq va psixologiya kabi bo'limlar bilan ham uzviy aloqadorlikda faoliyat yuritadi. Badiiy matnni lisoniy tahlil qilish jiddiy filologik tayyorgarlikni talab qiladi. Chunki badiiy matn ijodiy tafakkur mahsuli sifatida shakl va mazmun jihatidan o'ta murakkab badiiy estetik butunlik hisoblanadi.

Yirik adabiyotshunos olim B.Sarimsoqov yozganiday: —Badiiylik — san'atning, jumladan, so'z san'atining asosiy, doimiy xususiyati. Juda qadim zamonlardan buyon hozirga qadar ko'plab olimlar badiiylikni xilma-xil talqinlar, ta'rifu — tavsiflar etib kelishadi. Ammo biron-bir olim badiiylik haqidagi mening talqinim to'g'ri, deb da'vo qila olmaydi. Chunki san'atning qoni va joni bo'lmish bu hodisaning sir-sinoatlari beadad bo'lib, ular bir davr adabiyotida, uning turli yunalish va oqimlarida, har bir milliy adabiyot va uning ayricha olingan namoyandasida o'ziga xos tarzda, o'ziga xos miqyos va darajada namoyon bo'ladi. Badiiylikning barcha zamonlar va ijodkorlar uchun mos keladigan andozalari ta'rifu talqinlari yo'q, bo'lishi ham mumkin emas. Qolaversa, badiiylikni har bir shaxs o'z dunyoqarashi, g'oyaviy-estetik tamoyillari, missiy olami va bilim doirasida idrok etadi va tushunadi. Ammo bu degani — badiiylik hodisasini o'rganishning umuman foydasi yo'k, degani emas. Aksincha, har bir san'at turida badiiylikning namoyon bo'lishi, miqyosi va darajalarini bevosita o'sha soha mutaxassisleri tomonidan muntazam o'rganilib borishi zarur

O'zbek tilshunosligida lingvopoetikaning oyoqqa turishida va rivojlanishida X.Doniyorov, S.Mirzaev, Q.Samadov, I.Qo'chqortoev, X.Abdurahmonov, N.Mahmudov, B.Umurqulov, I.Mirzaev, M.Yo'ldoshev kabi olimlarning xizmatlari katta bo'ldi. Ular badiiy asar tilining stilistik, badiiy -estetik jihatlarini yozuvchining so'z tanlashi, uning o'ziga xos tili, umumxalq tiliga bo'lgan munosabati, yangi so'z va iboralar yaratishi kabi omillar nuqtai nazaridan tekshirdilar.

O'zbek she'riyatida ham ko'plab shoirlarning sherlarini lingvopetik taxlil qilish mumkin jumladan A.Oripovning quydagi misralariga e'tibor qaratadiga bo'lsak

Goho, yer mehrini o'ylarkan,
Esga tushar dorning siyog'i.
Ajab hikmat odam o'larkan
Uzilganda... yerdan oyog'i?

bu yerda asosan "Oyog'i yerdan uzilgan" iborasiga alohida e'tibor qaratilga bo'lib, bu ibora mansab tegishi bilan o'zgalarni nazar-pisand qilmay qoladigan takabbur, mansabparast kishilarga nisbatan ishlatiladi. Bunday toifadagi kishilarning davr-u davroni uzoqqa bormaydi. Shoir bu iborani reallikka asoslayapti, ya'ni dorga tortilgan insonning oyg'i yerdan uzilishi bilan hayoti ham tugaydi. Bu yerda qo'llanilgan ibora majoziy ma'no ifodalashga va real ko'rinish yaratishga xizmat qilmoqda.

XULOSA

Xulosa sifatida shuni aytish joizki , lingvopoetik tadqiq asoslarini, ularning nomlanishini bir ko'rinishga keltirish kerak. Bu masala yuzasidan yaratilgan tadqiqotlar tilimizning boyligini ko'rsatish, filologiyaning yaxlitligini ta'minlash bilan bir qatorda, yetuk tilshunos va adabiyotshunos mutaxassislar tayyorlashga ham xizmat qiladi, deb o'ylaymiz. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan hoda yaxlit xulosa qilishimiz mumki ya'ni matn tilshunoslik nuqtai nazaridan barcha lingvistik xususiyatlarni o'zida mujassam etgan murakkab tuzilmadir va u tilshunoslikning barcha sohalarining asosiy o'rganish obyektlaridan biri hisoblanadi .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR: (REFERENCES)

1. Xolodovich A. K voprosu o lingvisticheskom metode v poetike // V borbe za marksizm v literaturnoy nauke. – L.: Priboy, 1930.
2. Coseriu E. Thesen zum Thema —Sprache und Dichtung|| // – In: Beitrage zur Textlinguistik / Hrsg. W.D. Stempel. –Munchen: Fink, 1971. 11
3. Yo'ldashev M.Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi.Filol.fan.dokt...dis.- Toshkent, 2009.3
4. Galperin I.R. Tekst kak ob'ekt lingvisticheskogo issledovaniya. M., 1981.
5. Karimova R.A. Semantiko struktturnaya organizatsiya teksta(na materiale ustnix spontannix i pismennix tekstov) : Avtoref. diss... d.ra fil. auk. -M.: 1992, s 27. 6.
6. To'xsonov M. Mikromatn va uning kommunikativ yahlitligi // O'zbek tili va adabiyoti, 1990, 5 - son, 66 – 69 – betlar.